

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131


17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIY ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAHBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Abduraxmonova Manzura,
FarDU Ijtimoiy ish va sotsiologiya
kafedrası professori, sotsiologiya fanları doktori

KAM TA'MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354903>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtisodiy rivojlanish davrida ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan masalalar, ijtimoiy himoya nazariyalari, kam ta'minlangan oilalar shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari Tosh davridan boshlab, bugungi kungacha bo'lgan davrdagi qarashlar, tushunchalar ilmiy asoslanib yoritilgan. Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirish, aholi turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mazkur masalada ijtimoiy himoya borasidagi izchil islohotlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kam ta'minlanganlikni belgilaridan biri bo'lgan qashshoqlikning kelib chiqish sabablari, turlari keltirilgan va aholini turmush darajasini bilishga qaratilgan yashash, hayot minimumi, davlat tomonidan ajratiladigan hayotiy ta'minot darajasi smetalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy, ijtimoiy, taraqqiyot, ijtimoiy himoya nazariyalari, kambag'allik, qashshoqlik, kam ta'minlanganlik, yashash minimumi.

Абдурахманова Манзура,
Профессор кафедры социальной работы и социологии ФерГУ,
доктор социологических наук

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно обоснованы вопросы, направленные на усиление социальной защиты в период экономической модернизации, теории социальной защиты, теоретико-методологические основы формирования и развития малообеспеченных семей. Сегодня одной из важных задач остается сокращение бедности, эффективное использование имеющихся возможностей социальной защиты различных слоев населения и осуществление последовательных реформ по социальной защите в данном вопросе. Приведены причины возникновения бедности, виды бедности, а также сметы уровня жизни, прожиточного минимума и жизнеобеспечения, выделяемые государством.

Ключевые слова: экономические, социальные, теории развития, социальная защита, бедность, бедность, малообеспеченность, прожиточный минимум.

Abdurakhmanova Manzura,
Professor of the Department of Social work
and Sociology of FerSU, Doctor of Sociology

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF LOW-INCOME FAMILIES

ABSTRACT

This article scientifically substantiates issues aimed at strengthening social protection during the period of economic modernization, the theory of social protection, theoretical and methodological foundations for the formation and development of low-income families. Today, one of the important tasks remains to reduce poverty, effectively use the available opportunities for social protection of various segments of the population and implement consistent reforms on social protection in this matter. The causes of poverty, types of poverty, as well as estimates of the standard of living, subsistence minimum and life support allocated by the state are given.

Key words: economic, social, development theories, social protection, poverty, poverty, low income, living wage.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda turli global iqtisodiy, ekologik tanglik kabi muammolar hamda aholi sonining muttasil ravishda ortib borishi ijtimoiy himoya tizimini doimiy takomillashtirib borish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini takomillashtirish shuningdek, raqamlashtirish va modernizatsiya qilish orqali keng ko‘lamli ishlarni talab etmoqda. Shu jihatdan, bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirish, aholi turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mazkur masalada ijtimoiy himoya borasidagi izchil islohotlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi” [1], deb bejiz aytmagan.

Yangi islohotlar davrida respublika miqyosida ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangicha yangi tartiblar joriy etilib, aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmi soddalashtirildi. Shuningdek, ushbu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib, bir qator sohalarida islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qator o‘zgartirish va tuzatishlar kiritildi. Xususan, insonning sha‘ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yohud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi [2] Konstitutsiyada belgilab qo‘yildi. Shuningdek, 2020-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [3] Farmoni, 2021-yil 21-oktyabrdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [4] Qarori, 2022-yil 29-apreldagi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [5] Farmoni, 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ” [6] farmoni, 2023-yil 10-noyabrdagi “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali kam taminlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo‘yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2024-yil 11-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” [7] Farmoni, 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risidagi” [8] Farmoni sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilishni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

METODOLOGIYA

Ijtimoiy himoya tushunchasi asrlar osha bosqichma-bosqich shakllanib rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy himoya orqali xalqning ijtimoiy adolatga boʻlgan talabi qondiriladi. Taraqqiyotga intilayotgan har qanday davlatning asosiy maqsadi aholi farovonligini oshirishdan iborat boʻladi. Shuni aytish mumkinki, davlat jamiyatning har bir aʼzosini hayotini yaxshilash uchun ijtimoiy siyosatni amalda qoʻllaydi. Shuning uchun, ijtimoiy siyosatning asosiy yoʻnalishlaridan biri kam taʼminlangan oilalar qatlamini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgandir. Insonlarni oilaviy rishtalar bilan birlashtirgan oila qadim zamonlardan beri mavjud boʻlib, insonni tugʻilishdan tortib eng muhim hayotiy jarayonlarni qamrab oladi. Oilaviy rishtalar nuqtai nazaridan tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, aholini ijtimoiy himoya qilishni oila darajasidagi genezisini quyidagi jadvalda koʻrish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Ijtimoiy himoyani shakllanish davrlari [9]

	Davrlar	Davrlarning nomlanishi
1	Mil.av. 6-3 ming yil	Tosh davri
2	Mil. av. 4-3 ming yil	Qadimgi Mesopatamiya
3	Mil. av. X-VI asr	Zardushtiylik- Avesto
4	Mil. av. VI-V asr	Xitoy- Konfutsiy taʼlimoti
5	Mil. av. II - milodiy I asr	Hindiston-Manu qonunlari
6	Milodiy VII-VIII asr	Islom dini

ASOSIY QISM

Dastavval, “Tosh davri”dagi ibtidoiy odamlar ov qilib, undirgan oʻljasini oʻz oilasidan orttirgan bir qismini oʻzi yashayotgan joydagi nochor va nogironlarga ulashishi, odamning odamga yordam qilishining ilk koʻrinishi hisoblangan. Demak, ijtimoiy xizmatlarning tarixi insoniyat tarixi bilan birga asrlar osha rivojlanib, takomillashib kelmoqda [10].

Zamonaviy konsepsiyaga asosan insonparvarlik munosabati, individuallik tamoyillariga asoslangan rivojlanish yondashuvi va shaxsning erkin rivojlanish faoliyatining tub negizida yotadi. Ijtimoiy yordam tosh davridan soʻng keyingi bosqichni din bilan birgalikda davom ettiradi. Garchi tengsizlik qadim zamonlardan beri zaif qatlamlarga nisbatan zulm haqidagi maʼlumotlar tez-tez manbalarda uchraydi.

Miloddan avvalgi 6-3 ming yillikda kadimgi sivilizatsiyalashgan Mesopatamiya davlatida kambagʻallarning ekspluatatsiyasi va qadimgi dunyoviy qonun hujjatlari kabi Hammurapi kodeksi bevalar va yetimlarga yomon munosabatda boʻlishni taqiqlagan [11]. Ushbu qonunlar kam taʼminlangan, ijtimoiy ehtiyoji yuqori boʻlgan aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan dastlabki qonuniy chora-tadbirlari, deyilsa ham yanglish emas.

Asrlar osha har bir qonun va taʼlimot din bilan uygʻunlashib boradi. Bunga sabab, dinning inson ongiga taʼsiri yuqori boʻlganligidadir. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Oʻrta Osiyo hududida zardushtiylik dinining paydo boʻlishi, ijtimoiy yordamning keng yoyilishiga va bu orqali yozma manba yaratilishiga olib keldi.

Miloddan avvalgi X-VI asrlarda Zardushtiylik Qadimgi Sharqda ijtimoiy yordamning turli jamoaviy koʻrinishlari va shakllari mavjud boʻlgan. Har bir kishi kasb nuqtai nazaridan kelib chiqib, ijtimoiy maqomiga koʻra maʼlum bir jamiyat qatlami vakillarining himoyasida boʻlgan. Masalan, aholining geografik joylashuvidan kelib chiqib, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va savdogarlar oʻz maqomiga teng boʻlgan shaxslarga maʼlum bir ijtimoiy yordamlarni koʻrsatganlar va ularni himoya qilganlar [12]. Zardushtiylik taʼlimoti orqali davlat tuzumi tartibga solingan, har bir tadbirlar va qarorlar “Zardushtiylik taʼlimot”iga tayangan holda amalga oshirilgan.

Zardushtiylik taʼlimotida keng oʻrin olgan “Avesto” Oʻrta Osiyo xalqlarining islomgacha boʻlgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam toʻgʻrisidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, maʼnaviy madaniyatini oʻrganishda muhim va yagona manba hisoblanadi [13]. Avestoda

insonlarni to‘g‘ri fikrlashi, to‘g‘ri hayot kechirishi, to‘g‘ri so‘zlashi muhim hisoblangan. Shu sababli, Avestoda asosiy g‘oyalar yaratilib, dasturi amal sifatida foydalanildi:

1. **Aql bilan o‘ylash, yaxshi so‘zlash va yaxshi ish qilish** – Zardushtiylikning uch asosiy tamoyili.

2. **Mehnat va halol yashash** – inson jamiyat uchun mehnat qilishi va adolatli bo‘lishi maqталadi.

3. **Yordam berish va saxovat** – muhtojlarga yordam ko‘rsatish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash g‘oyalari bor.

4. **Yovuzlikka qarshi kurashish** – zulm, yolg‘on, zo‘ravonlikka qarshi turish – ijtimoiy barqarorlik uchun muhim.

O‘sha davrda ruhoniylar va diniy tashkilotlar zimmasiga ijtimoiy xizmatlar, qo‘llab-quvvatlash, yordam ko‘rsatish va hayriya tadbirlarini o‘tkazish yuklangan. Hukmdorlar, boy fuqarolar, ibodatxonalarda hayriya tushliklarini uyushtirgan hamda faqir va nochorlarga hayriya va ehsonlar tarqatganlar. Jamoalarda umumiy jamoaviy jamg‘arma hisobidan muhtoj oilalar moddiy qo‘llab-quvvatlangan [14]. Og‘ir sharoitga tushib qolgan oilalarga yordam berish asosiy vazifa hisoblangan. Oilani muqaddaslash va uni asrash, har qanday holatda ham tashlab ketmaslik muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, ushbu va yangi jamg‘armalar yillar davomida shakllanishi va rivojlanishi natijasida XX asrga qadar boquvchisini yo‘qotgan, kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga moddiy yordam berib kelinadi. XX asrdan so‘ng ijtimoiy yordamlar ko‘rsatish davlat nazoratiga o‘tadi. Davlat ijtimoiy adolatni ta‘minlash va ijtimoiy ko‘maklarni samarali va sifatli ko‘rsatish maqsadida ijtimoiy ish kasbi vujudga keladi. Bu orqali ijtimoiy xizmatlar institutsionlashuv jarayonini boshlab beradi.

Shuningdek, ijtimoiy ishning murakkab bosqichlari Renessansning 1 va 2-bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Buyuk Sohirqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutaffakir olimlar fikrlari orkali ijtimoiy ish sohasida aholining ehtiyojmand qatlamlariiga ijtimoiy yordam va xizmatlar ko‘rsatilgan. Ibn Sino (980-1037) oila boshlig‘i ishlab topgan daromadini oila a‘zolarining harajatlari va ehtiyojlarini qondirishga chaqirgan. Ibn Sino uy hujaliklari moliyasini oqilona boshqarishning ahamiyatini ta‘kidlagan. U daromadni uch qismga bulish tavsiya etadi: kundalik harajatlar, xayriya badallari uchun va favqulodda vaziyatlar uchun tejash [15], deb fikr bildirgan. Ibn Sino oilani muqaddas, deb bilgan va oilaning ehtiyojlarini va harajatlarini oila boshlig‘i ta‘minlashi va hayr ehsonga daromadini qaratishi kerakligini aytib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xorijlik sotsiolog olimlar K.Maks, E.Dyurkgeym, M.Veber, O.Kont, G.Spenser, Robert K.Merton, T.Hobbes, G.E.Andersen, R.Titmuslar ijtimoiy himoyaning turli modellarini ishlab chiqishdi va o‘z nazariyalarini yaratishdi. Shuningdek, E.Dyurkgeym, ijtimoiy integratsiya yoki odamlarning o‘z ijtimoiy guruhlari bilan bo‘lgan aloqalarining mustahkamligi ijtimoiy hayotning asosiy omili, deb hisoblagan [16].

R.Burde, E.Giddens [17], G.Bauman [18], A.Shyus [19], P.Druker [20], P.Shtompka [21] va boshqalar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy xavfli jamiyatning hayot tarzi va faoliyatini sotsiologik o‘rganishning turli paradigmalari ilgari suriladi. Globallashuv davrida xavf jamiyat hayotining qiymati va normativ tartibga solishning yana bir doirasini ochib beradigan ijtimoiy anomiya sifatida qaraladi.

Yuqorida qayd etilgan manbalarda ijtimoiy normalarning jamiyatda barqaror bo‘lishi, aholini, jumladan kam ta‘minlangan oilalarni insonlar hayotida, xulq-atvorida aniq qoidalarga rioya etilishining farqlanish jihatlari ham tadqiq etilgan.

Amerikalik Meri Richmond ijtimoiy ishning muhim bosqichi bo‘lgan “Ijtimoiy tashxis” kitobi orqali axolini ijtimoiy kilish jarayonga yo‘naltirilgan protsedura aralashuvini amalga oshirdi.

Mamlakatimiz olimlaridan professor M.B.Bekmurodov “...**insonga yoshligidan berilgan mehr uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizim ichki va tashqi ta’sirlarga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.** Mehr shaxsga baxt hamda yashashga ishonch, ezgulikka umid, intilish hissi, optimistik kayfiyatni uyg‘otadi.

Mehribonlik hissi – shaxslararo munosabatlarda kelishmovchilik va nizoli jarayonlarning oldini olibgina qolmay, balki hamfikrlik va hamkorlikni rag‘batlantiradi”, degan fikrni bildirib, aynan, ijtimoiy ish kasbini mehr bilan bog‘laganlar hamda **mehrni ijtimoiy konsensus sifatida modernizatsiya qilishning muhim jihati uning sohalarini (darajalarini) aniqlashdir [22], deb ko‘rsatadilar. Ijtimoiy himoyada mehr-muruvvatlik silai rahmli bo‘lish haqiqiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.**

Professor A.V.Vaxabov kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoyasi o‘rnida ijtimoiy ta‘minotiga to‘xtalib, “Ijtimoiy ta‘minot aholining farovonligini ta‘minlash uchun ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, uning tarkibiga ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mehnat layoqatini tiklash, bolalar va kattalar uchun ijtimoiy xizmatlar, davlatning yordami, ijtimoiy sug‘urta, jismoniy va aqliy zaif odamlarga ijtimoiy ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi [23], deb ta‘kidlaydi.

O‘zbekistonda ijtimoiy ish kasbiy faoliyati taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shgan professor M.X.Ganieva ishlarida kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda “...ijtimoiy jihatdan ortda qolgan qariyalar, nogironlar, yolg‘iz kimsalar, kam ta‘minlanganlar va aholining boshqa toifalariga ko‘maklashish jamiyatning yuqori darajadagi taraqqiyoti va madaniyatli ekanligidan dalolat beradi”. Shuning uchun “ijtimoiy ish – butun dunyoda kishiga nisbatan insoniy munosabatlarni nomoyon etuvchi tushunchadir” [24], deb ko‘rsatadi.

Olima N.M.Latipova ijtimoiy ishni kam ta‘minlangan oilalar “ijtimoiy himoyasi” tushunchasi bilan bog‘lab, himoyaga muhtoj guruhlarni, jumladan, oilalar va bolalarni ustun qo‘yadigan “... universallik, hamjihatlilik, tenglik, cheklamaslik va adolat prinsiplari asosida ifodalangan, ijtimoiy himoya adolat hamda xavfsizlikni ta‘minlash, ijtimoiy xavflarni bartaraf qilish, ularning oqibatlarini yengib o‘tish uchun muayyan sharoit yaratuvchi murakkab institutsional mexanizmlarni rivojlantirish orqali integratsiyalashgan va barqaror jamiyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar yig‘indisidir” [25], deb ta‘kidlaydi.

Davlat nazorati ostida onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlash, kam ta‘minlangan oilalar uchun ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish kabi kafolatli jarayonlarsiz oilani jamiyatda munosib faoliyat yurishi mumkin emas. Davrlar mobaynida ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozli voqealar jamiyatda jiddiy ijtimoiy yo‘qotishlarga olib keladi. Bunga misol qilib, har bir oila a‘zosining jon boshiga o‘rtacha daromadi minimum iste‘mol harajatidan past bo‘lgan kam ta‘minlangan oilalar toifasini yaratdi.

Bizning qonunlarimizda «Ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar – «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi orqali kam ta‘minlangan, deb e‘tirof etilgan oilalar, a‘zolari nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgan oilalar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar, bolaning ota-onasi kvotalar bo‘yicha mintaqalarga taqsimlangan ijtimoiy soha xodimlari bo‘lgan oilalar, to‘rt yoki undan ko‘p bolalari bo‘lgan oilalar» [26], deb e‘tirof etilgan. Ushbu kambag‘allik fenomeniga nisbatan ingliz iqtisodchisi A.Pigu “kambag‘al oilalar qatoriga “daromadlari shu qadar pastki, daromadlari mutlaqo sarflangan taqdirda ham ularning yordami bilan to‘g‘ri yashashni ta‘minlab bo‘lmaydi [27], deb fikr bildiradi.

Umumiy ma‘noda kambag‘al odamning shaxsiy va kundalik harajatlari o‘rtacha daromadidan oshib ketganligi sababli mavjud daromadi bilan ehtiyojlarini qondira olmasligini bildiradi. Qonunchiligimizda “mahalla yettiligi” tomonidan maxsus savolnoma asosida oilaning ijtimoiy sharoiti va kambag‘allikka tushish sabablarini o‘rganish natijalariga ko‘ra, kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar [28] kambag‘al oila hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, qashshoqlikning bir necha turlari mavjud bo‘lib, sotsiolog A.A.Varıyızgina o‘z asarlarida qashshoqlikni quyidagi turlarga bo‘ladi (2-jadval).

Qashshoqlikning turlari [29]

2-jadval

	Birlamchi turi	Ikkilamchi turi
1.	Qashshoqlik oilaning yashash minimumidan oshmaydigan umumiy daromadini nazarda tutadi	Qashshoqlik nazariyasiga ko‘ra, oilaning daromadi belgilangan chegaradan biroz yuqori bo‘lib, oilaning moliyaviy savodxonligi

	pastligi sababli uning qashshoqlik chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyin
--	--

Qashshoqlikning asosiy sabablari obyektiv hayotiy jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Bir tarafdin oilada asosiy boquvchini kasallik yoki o‘lim holati bilan yo‘qotish. Boshqa tarafdin ota-ona yoki farzand tomonidan deviant xulq atvor shakllanishi ya‘ni og‘ish harakatlari sababli oilaning moddiy va ma‘naviy farovonligi pasayadi (3-jadval).

Qashshoqlikning kelib chiqish sabablari [30]

3-jadval

	Birlamchi sabablari	Ikkilamchi sabablari
1.	Qashshoqlikning sabablari orasida kasallik yoki boquvchisini yo‘qotish, ish bilan bog‘liq muammolar va ko‘p bolali oilalar kiradi.	Qashshoqlikning sabablari ota-onalarning deviant xulq-atvori (alkogol, giyohvandlik, psixologik qaramlik) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Aholini turmush darajasini bilish uchun ularni yashash minimum mavjud bo‘lib, ushbu masalada sotsiolog K.Karaeva aholi soni har xil bulgan 5 ta guruhni davlat tomonidan ajratiladigan hayotiy ta‘minot darajasiga qarab quyidagilarga bo‘ladi (4-jadval).

Aholining turmush darajasi farovonligini harajatlar smetasi [31]

4-jadval

Guruhlar	Hayotiy holatlar
I guruh	Kambagal oilalar, ularning jon boshiga daromadi past yoki yashash minimumi byudjetining harajatlar smetasiga mos keladi.
II guruh	Kam ta‘minlangan oilalar, ularning jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari yashash uchun mo‘ljallangan byudjet harajatlari smetasi oralig‘ida bo‘ladi.
III guruh	Jon boshiga daromadi yuqori bo‘lgan badavlat oilalar va aholi jon boshiga o‘rtacha darajasi atrofida o‘zgarib turadi, daromad esa shunga mos ravishda o‘rtacha byudjet harajatida bo‘ladi.
IV guruh	Badavlat oilalar, ularning jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar aholi jon boshiga o‘rtacha daromad, o‘rtacha byudjet va darajalari oralig‘ida oqilona iste‘mol byudjet hisoblanadi.
V guruh	Daromad darajasi yuqori bo‘lgan badavlat oilalar oqilona byudjet foydalanadilar.

Rossiya Federatsiyasida kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari har tomonlama yo‘lga qo‘yilganligida ko‘rinadi. Rossiyada kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi. Rossiyada kam ta‘minlangan oilani daromadini hisoblashda oldingi 3 oy davomida natura va pul shaklida olingan daromadlar ya‘ni, ish haqi, nafaqalar, to‘lovlar, daromadlar mulk (masalan, ijaradan), royalti, foyda, aksiyalar va boshqalar hisoblanadi. Umumiy daromad 3 ga va oiladagi odamlar soniga bulinadi. Olingan qiymat yashash minimumidan past bo‘lishi kerak va har bir hudud uchun alohida yiliga 2-3 marta tashkil etiladi.

Oila kam daromadli, deb tan olinishi keyingi muhim mezondir. Shuningdek, ularga bog‘liq bo‘lmagan sabablar orqali og‘ir holatlarning paydo bulishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, oilalarda

mehnatga layoqatli kishilar o'z xohish-istaklari bulmaganligi sababli ishga joylashmasalar (masalan, alkogolizm yoki giyohvandlar) nafaqa talab qilish huquqiga ega emas.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chinakam muhtoj oilalar uchun mo'ljallangan va oila a'zolaridan mehnatga layoqatli a'zosi ishlaydigan yoki bandlik markaziga murojaat qilgan bo'lsa kam ta'minlangan, deb e'tirof etishga asos bo'ladi.

Quyidagi oilalar kam ta'minlangan oila, deb topilishi mumkin:

- ota yoki onadan biri, bir yoki bir nechta bolani tarbiyalayotganda;
- ko'p bolali oila;
- bobo-buvi va nabiralardan iborat;
- o'gay onalar yoki o'gay otalar va o'gay farzandlar;
- vasiylikka va homiylikka olingan farzandlari bor bo'lgan oilalar.

Shuningdek, kam ta'minlangan oilalar qatoriga I va II toifadagi nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud oilalar, ishsizlar, talabalar oilalari, shuningdek, pensionerlari mavjud oilalar ham kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, kam ta'minlangan oilalar quyida keltirilgan oilalarni ham o'z ichiga oladi. Disfunktsional oilalar, masalan, inqirozli oila, ijtimoiy oila, axloqsiz oila, antisotsial oila. Bu oilalarda har xil muammo sababli kambag'allik paydo bo'ladi.

Bunday muammolar orasida ota-onalarning ajrashishlari, ota-onalardan birining o'limi, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bularning hammasi nafaqat oilaning farovonligiga va uning normalligiga ta'sir qiladi, balki bolaning sog'lig'i va ruhiyatiga ham ta'sirni o'tkazadi. Bunday oilalarda, ko'pincha, deviant xulqli bolalar tarbiyalanadi. Ushbu holatda bunday oilalarga yordam turli oilalarga yordam markazlari orqali amalga oshiriladi, jumladan oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bolalar, yoshlar markazlari, ushbu markazlar orqali bolalar, oilaviy qadriyatlarini, munosabatlarni mustahkamlash, qarovsizlik va voyaga yetmaganlar jinoyatini oldini olinishi mumkin.

Demak, "kam ta'minlangan oila – bu oila jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yashash minimumidan past va qonunchilik tomonidan belgilangan ijtimoiy yordam olish huquqi bor oilalarga ajratiladi. Oila kam ta'minlangan, deb tan olinishi uchun, oila ijtimoiy xizmatlarga ma'lum hujjatlarni taqdim etishi kerak va oila bu maqomni uzini o'zi boshqaruvchi mahalliy hokimiyat qarori bilan oladi".

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
2. [https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning -oliasy-28-12-2018](https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliyasy-28-12-2018)
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-modda. 01.05.2023
4. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. <https://lex.uz/docs/-5688101>
6. <https://lex.uz/docs/-5989603>
7. <https://lex.uz/docs/6480342>
8. <https://lex.uz/docs/-7100210>
9. <https://lex.uz/docs/-7374261>
10. Жадвал муаллиф томонидан илмий манбалар асосида шакллантирилди.
11. Тетерский С.В. Введение в социальную работу: Учебное пособие. – М.: Издательство “Академический проект”, 2020. – С.5-26.
12. James Midgley Inequality, Social Protection and Social Justice monografiya 2020.P-11 <https://iba.edu.pk/sess/labs/sil/studentcorner/james-midgley-inequality-social%20protection-and-social-justice.pdf>
13. Tolibov B. Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish dissertatsiyasi 2022.-b.50.
14. Asqar Mahkam. Avesto. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.72

15. Кузьмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). – М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002. – С.11.
16. Musafa Z.B.va boshqalar. Family as the Society: An analysis of Ibn Sina's thoughts in Al-Siyasah. International journal of academic research in business and social sciences. Pokistan. 2024. P-1. https://hrmars.com/papers_submitted_/24299/family-as-the-pillar-of-society-an-analysis-of-ibn-sinas-thoughts-in-al-siyasah.pdf
17. Rothschild T. Rothschild's Introduction to Sociology. Pressbooks. Toronto. 2016 <https://pressbooks.pub/rothschildsintrotosociology/chapter/theoretical-perspectives-on-society/>
18. Гидденс Э. Судьба, риск и безопасность // Thesis, 1994. - № 5. – С. 110.
19. Бауман З. Индивидуализированное общество. – М.: Логос, 2005. – С. 55.
20. Шютц А. Смысловая структура повседневного мира. – М.: Наука, 2003. – С. 200.
21. Drucker P.F. The Future of Industrial Man. Piscataway: Transaction Publishers, Rutgers the State University, 2009. Drucker P.F. The New Society. The Anatomy of Industrial Order. N.Y.: Harper, 2010.
22. Qarang: *Штомпка П.* Социология социальных изменений. – М.: Аспект Пресс, 1996; *Sztompka P.* Society in action: the theory of social becoming. Cambridge: Polity Press, 1991. Социологическое обозрение Том 2. № 3. 2002.
23. Bekmurodov M.B., Karimov B.Sh. Mehr tushunchasining ijtimoiy munosabatlarni konsensus darajasida yuksaltirishdagi roli. // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. №SI-1 (2021). – В. 5-8.
24. Vahabov A.V. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta`minotga kirish. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – В.9.
25. G`aniyeva M.X., Karamyan M.X., Latipova N.M. Ijtimoiy ish asoslari. O`quv-uslubiy qo`llanma. Toshkent: “JAHON PRINT”, 2012. – 9 b.
26. Latipova N.M. O`zbekistonda oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilish. Sotsiologiya fanlari doktori (DSs) bo`yicha dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, O`zMU. 2020. – 14 b.
27. ПФ-6277-сон 11.08.2021. Кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам кўрсатиш ҳамда камбағаллик билан курашиш кўламини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида.
28. Пигу А. Экономическая теория благосостояния. – М: Прогресс, 1985. Ч.І. – 160 с.
29. 125-сон 27.02.2025. Оилаларни камбағалликдан чиқаришга қаратилган кўмак чораларини кўрсатишга доир тартиб-таомилларни такомиллаштириш тўғрисида.
30. Варызгина А.А. Превентивные стратегии избегания бедности, избираемые семьями с несовершеннолетними детьми. – Нижний Новгород: Знания, 2015. – 149с.
31. Варызгина А.А. Превентивные стратегии избегания бедности, избираемые семьями с несовершеннолетними детьми. – Нижний Новгород: Знания, 2015. – 149с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000